**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 14-sentabr | 643-10-0-Q/24 | Toshkent viloyati hokimiligi

## Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 15-yanvardagi “Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashning vaqtinchalik tartibini tasdiqlash haqida”gi 13-10-0-Q/24-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalari bo‘yicha respublika kommissiyasi majlisining 2024-yil 31-iyuldagi 11-sonli bayonnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagi 06-08-33-sonli xatiga asosan, tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq, **qaror qilaman:**

1. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalari bo‘yicha respublika kommissiyasi majlisining 2024-yil 31-iyuldagi 11-sonli bayonnomasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagi 06-08-33-sonli xati rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalari bo‘yicha respublika kommissiyasi majlisining 2024-yil 31-iyuldagi 11-sonli bayonnomasi bilan hokim o‘rinbosarlari – oila va xotin-qizlar boshqarmasi (bo‘limi) boshliqlarining KPI ko‘rsatkichlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik uchun berilgan himoya orderlarini sonining ortishi yoki kamayishiga qarab baholanishiga oid normalarni bekor qilinishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 15-yanvardagi “Tuman (shahar) hokimi o‘rinbosarlarining faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari

asosida baholashning vaqtinchalik tartibini tasdiqlash haqida”gi 13-10-0-Q/24-sonli qarori 8-ilovasining 7-bandi chiqarib tashlansin.

4. Viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi (M.Davronov) ushbu qarorni manfaatdor tomonlarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Toshkent viloyati hokimi** **Z.Mirzayev**